

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLASHINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION USULLARI

**Aminov Istam Barnoyevich**

Samarqand davlat universiteti dotsenti  
istam.aminov@mail.ru

**Boymanov Jasur Isroil o'g'li**

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti magistri,

### ANNOTATSIYA

*Raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarni mustaqil ishlashini tashkil etishda axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanib ijodiy-uslubiy malakalarini shakllantirish mumkin. Ushbu maqolada o'quvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etishda axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning uslubiy asoslari yoritilgan.*

**tayanch iboralar:** *axborot va innovatsion texnologiyalar, mustaqil ish shakllari, o'quvchilarni mustaqil ishlashini tashkil etishda interfaol vositalardan foydalanish samaradorligi.*

### АННОТАЦИЯ

*Формировать творчески-методические умения можно, используя информационно-инновационные технологии для организации самостоятельной работы студентов на основе цифровых технологий. В данной статье описаны методические основы использования информационно-инновационных технологий в организации самостоятельной деятельности студентов.*

**ключевые слова:** *информационные и инновационные технологии, формы самостоятельной работы, эффективность использования интерактивных средств в организации самостоятельной работы студентов.*

### ANNOTATION

*It is possible to form creative and methodological skills using information and innovation technologies to organize independent work of students based on digital technologies. This article describes the methodological foundations for the use of information and innovation technologies in the organization of students' independent activities.*

**key words:** *information and innovative technologies, forms of independent work, effectiveness of using interactive tools in organizing students' independent work.*

O'quvchilarning raqamli texnologiyalar asosida mustaqil ishlarini tashkil etishdan asosiy maqsad o'quvchilarning fundamental bilimlarini, ko'nikma va

malakalarni, ijodiy qiziqish va tajribalarni etarli ravishda shakllantirishdan iborat. O'quvchilarning mustaqil ishlash jarayonini raqamli texnologiyalar asosida boshqarishning asosiy mohiyati- bu shu jarayonni shunday tashkil etishdan iboratki, bunda o'quvchilar berilgan topshiriqlarni bajarsinlar va mustaqil izlash yo'li bilan ilmiy tasavvurlash metodini o'zlashtirsin, o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirsin, o'zining o'quv faoliyatida ijodiy yondoshuvga bo'lgan qiziqishi rivojlansin hamda shu bilan birga ijodiy vazifasini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan xususiyatlari, qobiliyatlari, xarakterini mukammallashtirsin [2]. Bundan shu narsa kelib chiqadiki to'g'ri tashkillashtirilgan mustaqil ishlar nafaqat ta'limiy balki shaxsiy-ijodiy ahamiyatga ham ega bo'ladi. O'quvchilarda nazariy va amaliy masalalarni mustaqil hal qilish ko'nikmalari ma'lum bir miqdorda o'quv jarayoni davomida shakllanadi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarining eng asosiy funksiyalari sifatida nazariy materiallarni sifatli o'rganish, mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, bilimlarni ehtiyojga asosan doimiy to'ldirish va yangilash, mustaqil ishlashning ratsional qoidalari va metodlarini o'zlashtirish tushuniladi.

Bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida o'quvchilarni mustaqil ishlashi uchun zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalari vositalari keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Axborot texnologiyalari vositalari o'quvchilarning mustaqil ishlashida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi[2]:

- olingan ma'lumotlarni xotirada kerakli vaqtga saqlab turish, ularni tahrirlash, chop etish, nusxalash va hokoza;
- kerakli materiallarni ma'lum bir maqsadlar uchun yaratilgan mul'ti-mediya ma'lumotlar orqali interfaol usulida o'rganish;
- turli axborot manbalariga, shu jumladan uzoqlashgan va taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga, Internet tizim orqali butun dunyo bo'yicha konfe-rensiyalarga kirish;
- hamkorlik telekommunikatsion loyihalarni, shu jumladan xalqaro, elektron konferensiyalar, kompyuterli audio-videokonferensiyalarni tashkillashtirish.

Axborot va kompyuter texnologiyalari o'quvchilarga o'zlari uchun yangilik

hisoblangan ma'lumotlar bilan mustaqil ishlash, muhim va shaxsiy-ijodiy ahamiyatli faktlarni ajratish ko'nikmalarini egallash imkonini beradi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirish o'quv materialaridan foydalanishni o'rganish, mukammallashtirish va ijodiy yondoshish, yangi ijodiy bilimlarni egallash, interfaollikni rivojlantirish, ilmiy adabiyotlar va axborot resurslar bilan ishlash amaliy ko'nikma va malakalarini shakllanishi bilan asoslanadi.

Ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ularni mustaqil o'rganish, fikrlash, kerakli muammolarni anglab etishga va uning echimlarini mustaqil izlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Buning uchun mashg'ulotlarning barchasi o'qituvchi o'quvchini quyidagilarni amalga oshirishga to'g'ri yo'naltirish kerak bo'ladi:

a) uyga berilgan vazifalarni bajarish va qo'shimcha axborotlarni izlab topish va uni o'rganish zarurligi;

b) berilgan topshiriqlarni bajarilish muddatiga rioya etish va uni talab darajasida bajarilish ma'suliyatini sezish.

O'quv jarayonida bilim olish va o'rganish jarayonining an'anaviy, innovatsion va mustaqil shakllaridan birgalikda foydalanish o'quvchilarni talab darajasida kerakli bilimga ega bo'lish, mustaqil tasavvurlash va fikrlash, ta'lim jarayoni o'zining shaxsiy rejalashtirilgan maqsadlariga erishishning asosiy yutug'i sifatida qabul qilish qobiliyatlarini mukammallashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Axborot va innovatsion yondoshuv orqali o'quvchilarni mustaqil bilim olishi ma'lum bir miqdorda o'zining natijasini yoki samarasini berish kerak bo'ladi. Buning uchun o'quvchilarni faol ijodiy faoliyatni olib borish, ularda ijodiy ishlashga bo'lgan qiziqish va intilishni shakllantirish, hosil bo'lgan muammolarning ijobiy echimlarini mustaqil izlab topish va o'z fikr mulohazalarini bayon etishga jalb qilish lozim bo'ladi.

Bu masalalarni yechish mustaqil topshiriqlar tizimi orqali amalga oshirilishi zarur. Ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda masofadan o'qitish tizimini tashkil etishni an'anaviy o'qitish tizimi bilan uyg'unlashgan holda samarali amalga oshirilishi quyidagi bir nechta omillarga bog'liq bo'ladi:

- ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari bazasining mavjudligi va yetarliligi;
- Internet tarmog‘ida ishlashning uzluksizligi;
- masofadan bilim olayotgan o‘quvchilarning bilim olish ishtiyoqi, qiziqishi va o‘zlashtirish darajasining yuqoriligi;
- masofadan o‘qitish tizimiga bilimli, malakali va tajribali mutaxassis va o‘qituvchilarning jalb etilishi;
- masofadan o‘qitish tizimining kerakli va sifatli o‘quv materiallari, elektron darsliklar va o‘quv kurslari bilan ta’minlanganligi va ularning etarliligi;
- masofadan o‘qitish tizimida barcha mashg‘ulotlarni tizimli tarzda olib borilishi.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil jarayonida masofadan o‘qitish vositalariga an’anaviy o‘qitish vositalardan tashqari quyidagilar ham kiradi:

- elektron o‘quv nashrlar;
- kompyuter o‘qitish tizimlari;
- audio-vidio o‘quv materiallari;
- turli adabiyot va axborotlar manbalari tomonidan tavsiya etilgan o‘quv-nazorat testlari;
- kutubxona ma’lumotlar ba’zasi bilan aloqa;
- virtual materiallar va laboratoriyalar;
- o‘quvchilar bilimlarini baholash mezonlari va materiallari.

O‘quvchilar mustaqil bilim olishida, o‘tilgan mavzularni takrorlashda, hamda olgan bilimlari asosida nazoratlar topshirishda o‘rgatuvchi, axborot – ma’lumotli, nazorat qilish dasturlari axborot texnologiyalari asosida masofadan o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Masofaviy o‘qitish barcha o‘quvchilarga o‘zlarining individual xususiyatlariga muvofiq bilim darajalarini oshirish imkoniyatini beradi. O‘qitishning bunday usulida o‘quvchi aniq bir vaqtlarda mustaqil tarzda interfaol tarzda o‘quv – uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, test sinovlaridan o‘tadi, o‘qituvchi rahbarligida nazorat

ishlarini bajaradi va «virtual» o'quv guruhidagi boshqa shquchilar bilan o'zaro aloqa qiladi.

O'quvchilarda unda berilgan nazariy ma'lumotlarni mustaqil o'rganish bilan birga, amaliy masalalar echimiga nisbatan o'zlarining fikr mulohozalarini bildiradilar.

Ta'lim tizimida axborot va innovatsion texnologiyalar asosida mustaqil ishlarini tashkil etish o'quvchilarni mustaqil bilim olishi, ularning faol ijodiy faoliyatni olib borish, ularda ijodiy ishlashga bo'lgan qiziqish va intilishni shakllantirish, hosil bo'lgan muammolarning ijobiy echimlarini mustaqil izlab topish va o'z fikr mulohazalarini bayon etish imkonini yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)**

1. *Беляева А. Управление самостоятельной работой студентов / Высшее образование в России, №6, 2003*

2. *Демеусов А. Особенности планирования, организации и контроля внеаудиторной самостоятельной работы студентов.//Высшая школа Казахстана,2004. - С.52-54.*

3. *Фуряева Т.В. Методические рекомендации по организации самостоятельной работы студентов. – Красноярск, 1987.*

4. *Жуков А.Е. Организация самостоятельной работы студентов высшей школы. Дидактические средства, технологии, программы: монография / А.Е.Жуков, А.В.Симоненко. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2004. – 220 с.*

5. *Щербакова, Е. В. Технологические аспекты организации самостоятельной работы студентов современного педагогического вуза // Молодой ученый. — 2012. — № 3 (38). — С. 434-436.*

6. *Кадыров С.К. Управление самостоятельной работой студента при кредитной системе обучения // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. – 2011. –№ 11.– С. 78-86.*